



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA, ONLAYN DISKURS VA INTERNET JANRLARI: TUSHUNCHALAR VA CHEGARALAR

Ziyayeva Mahbuba

Jizzax politehnika instituti, dotsent

Annotatsiya.

Mazkur tadqiqotda raqamli kommunikatsiya, onlayn diskurs va internet janrlari tushunchalarining nazariy mazmuni hamda ularning o'zaro chegaralari lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida shakllangan yangi kommunikativ makon tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, multimodal nutq shakllarini yuzaga keltirdi. Maqolada raqamli kommunikatsiya kompyuter vositasidagi muloqot sifatida izohlanib, uning sinxron va asinxron shakllari, interaktivlik darajasi hamda platformaga xos xususiyatlari ochib beriladi. Onlayn diskurs ijtimoiy-madaniy va pragmatik omillar bilan bog'liq holda tahlil qilinib, internet janrlarining strukturaviy, funksional va uslubiy belgilari aniqlanadi. Shuningdek, chat, post, komment, blog, forum va boshqa janrlar misolida ularning kommunikativ maqsadi, auditoriya yo'nalishi va til birliklari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari raqamli muhitda tilning transformatsiyasi hamda janr chegaralarining nisbiy va dinamik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli kommunikatsiya, onlayn diskurs, internet janrlari, multimodallik, kompyuter vositasidagi muloqot, pragmatika, interaktivlik, janr tipologiyasi.

ЦИФРОВАЯ КОММУНИКАЦИЯ, ОНЛАЙН-ДИСКУРС И ИНТЕРНЕТ-ЖАНРЫ: ПОНЯТИЯ И ГРАНИЦЫ

Зияева Махбуба

Джизакский политехнический институт, доцент

Аннотация.

В статье рассматриваются теоретические основы понятий цифровой коммуникации, онлайн-дискурса и интернет-жанров, а также анализируются их функциональные и структурные границы в лингвистическом аспекте. Развитие информационно-коммуникационных технологий привело к формированию нового коммуникативного пространства, характеризующегося мультимодальностью и высокой степенью интерактивности. Цифровая коммуникация определяется как форма общения, осуществляемая посредством компьютерных и мобильных технологий, включающая синхронные и асинхронные формы взаимодействия. Онлайн-дискурс интерпретируется как совокупность текстов и коммуникативных практик, функционирующих в виртуальной среде и обусловленных социокультурными и прагматическими факторами. Особое внимание уделяется типологии интернет-жанров (чат, пост, комментарий, блог, форум и др.), их структурным характеристикам и коммуникативным стратегиям. Делается вывод о динамичности и относительности жанровых границ в цифровом пространстве.

Ключевые слова: цифровая коммуникация, онлайн-дискурс, интернет-жанры, мультимодальность, компьютерно-опосредованная коммуникация, прагматика, интерактивность, жанровая типология.

DIGITAL COMMUNICATION, ONLINE DISCOURSE, AND INTERNET GENRES: CONCEPTS AND BOUNDARIES

Ziyayeva Mahbuba

Jizzakh Polytechnic Institute, Associate professor

Abstract.

This study explores the theoretical foundations of digital communication, online discourse, and internet genres, focusing on their conceptual definitions and functional boundaries from a linguistic perspective. The rapid development of information and communication technologies has created a new communicative environment characterized by multimodality and interactivity. Digital communication is defined as computer-mediated interaction that encompasses both synchronous and asynchronous forms of exchange across various platforms. Online discourse is examined as a complex set of texts and communicative practices shaped by socio-cultural and pragmatic factors within virtual environments. The paper analyzes the structural and functional features of internet genres such as chats, posts, comments, blogs, and forums, highlighting their communicative purposes and linguistic characteristics. The findings demonstrate that genre boundaries in digital space are dynamic and context-dependent, reflecting the ongoing transformation of language in technologically mediated communication.

Keywords: digital communication, online discourse, internet genres, multimodality, computer-mediated communication, pragmatics, interactivity, genre typology.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat muloqot makoni tubdan o'zgardi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va turli platformalar orqali amalga oshirilayotgan muloqot shakllari tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, yangi kommunikativ modelni – raqamli kommunikatsiyani shakllantirdi. Ushbu jarayon nafaqat texnologik, balki lingvistik, pragmatik va ijtimoiy-madaniy jihatdan ham chuqur o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Natijada tilning yangi ko'rinishlari, internetga xos janrlar va onlayn diskurs shakllari paydo bo'ldi.

Raqamli kommunikatsiya an'anaviy og'zaki va yozma nutq shakllaridan farqli ravishda multimodal xarakterga ega bo'lib, unda matn, grafika, emoji, audio va video elementlar bir butun kommunikativ birlik sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa nutqning strukturasi, sintaksisi, leksikasi va pragmatik xususiyatlarida sezilarli transformatsiyalarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, onlayn diskursning interaktivligi, tezkorligi va auditoriya bilan bevosita aloqadorligi janr chegaralarining dinamiklashuviga sabab bo'lmoqda.

So'nggi yillarda kompyuter vositasidagi muloqot (Computer-Mediated Communication) doirasida olib borilgan tadqiqotlar raqamli nutqning o'ziga xos lingvistik parametrlarini aniqlashga qaratilgan bo'lsa-da, "raqamli kommunikatsiya", "onlayn diskurs" va "internet janri" tushunchalarining aniq chegaralarini belgilash masalasi hali ham ilmiy munozarali masala bo'lib qolmoqda. Ayrim tadqiqotlarda bu terminlar sinonimik tarzda qo'llanilsa, boshqalarida ular o'zaro ierarxik munosabatda talqin etiladi. Shuning uchun mazkur tushunchalarning nazariy aniqligi va terminologik chegaralarini belgilash dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, raqamli makonda shakllanayotgan nutq birliklari nafaqat kommunikativ jarayonni, balki til tizimining o'zini ham o'zgartirmoqda. Internet janrlarining ko'payishi va ularning tezkor evolyutsiyasi janr tipologiyasini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Shuningdek, onlayn diskursning pragmatik, ijtimoiy va identitetga oid xususiyatlari zamonaviy tilshunoslikda yangi metodologik yondashuvlarni zarur etmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – raqamli kommunikatsiya, onlayn diskurs va internet janrlari tushunchalarini nazariy jihatdan aniqlashtirish, ularning o'zaro munosabatini belgilash

hamda chegaralarini lingvistik nuqtai nazardan asoslab berishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi: raqamli kommunikatsiyaning asosiy belgilari aniqlanadi; onlayn diskursning strukturaviy va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi; internet janrlarining tipologik mezonlari belgilab beriladi; mazkur tushunchalar oʻrtasidagi funksional va ierarxik munosabat izohlanadi.

Tadqiqotda diskurs tahlili, janrshunoslik, pragmalingvistika va multimodal lingvistika yondashuvlari metodologik asos sifatida qoʻllaniladi. Shuningdek, internet platformalaridagi real kommunikativ materiallar tahlil obyekti sifatida jalb etiladi.

Kutilayotgan ilmiy natija shundan iboratki, maqolada raqamli kommunikatsiya – keng qamrovli kommunikativ makon, onlayn diskurs – mazkur makonda yuzaga keladigan nutqiy jarayonlar majmui, internet janrlari esa shu diskursning strukturaviy-funksional shakllari sifatida konseptual modelda izohlanadi. Bu esa zamonaviy tilshunoslikda terminologik aniqlikni taʼminlash va raqamli nutq fenomenini tizimli oʻrganishga xizmat qiladi.

Raqamli kommunikatsiya va onlayn diskursni lingvistik jihatdan oʻrganish, avvalo, “kompyuter vositasidagi muloqot” (Computer-Mediated Communication, CMC) hamda “kompyuter vositasidagi diskurs” (Computer-Mediated Discourse, CMD) konsepsiyalariga tayangan holda shakllangan. S. Herring CMDni tarmoqqa ulangan (keyinchalik mobil) qurilmalar orqali uzatiladigan xabarlar asosida yuzaga keladigan muloqot mahsuli sifatida izohlaydi va CMD/CMC doirasida til birliklarining struktura, maʼno hamda qoʻllanish sharoitlari empirik matnlar asosida tahlil qilinishini metodologik meʼyor sifatida ilgari suradi. Uning Computer-Mediated Discourse Analysis (CMDA) yondashuvi aynan raqamli muhitda leksik tanlov, sintaktik qurilish, kod-almashish, uslubiy tebranishlar kabi mikro-fenomenlarni “texnologik cheklov + ijtimoiy kontekst” uygʻunligida izohlash imkonini beradi.

Internet tilshunosligi konsepsiyasini ommalashtirgan D. Crystal internetni “yangi lingvistik makon” sifatida talqin qilib, undagi muloqot shakllari ogʻzaki va yozma nutqning qatʼiy chegaralarini yumshatishini, natijada “ogʻzaki-yozma sinkretiklik” kuchayishini koʻrsatadi. Crystal internetdagi janrlar (e-mail, chat, veb matn, blog va b.)ni tilning kreativligi va variativligi nuqtai nazaridan baholab, internet janrlarining texnologik imkoniyatlar (interaktivlik, tezkorlik, hyperlinklik) bilan uzviy bogʻliqligini taʼkidlaydi. Bu yondashuv raqamli kommunikatsiya, onlayn diskurs va internet janri tushunchalarini ajratishda “platforma” omilini muhim mezon sifatida koʻrishga zamin yaratadi.

Internet janrlarini izohlashda klassik janr nazariyasi ham tayanch boʻlib xizmat qiladi. C. Miller janrni shakl yoki mavzu yigʻindisi emas, balki “tipiklashgan ijtimoiy harakat” sifatida talqin qilib, janrning chegaralari kommunikativ vaziyatning takrorlanuvchi motivlari bilan belgilanadi, degan gʻoyani asoslaydi. Shu nuqtadan kelib chiqib, onlayn muhitda chat, post, komment, forum, blog kabi janrlar faqat format (qisqa/uzun) bilan emas, balki ijtimoiy maqsad, auditoriya, muloqot tezligi va ishtirokchilarning rollari bilan farqlanadi. J. Swalesning “diskurs hamjamiyati” va janrlar oʻrtasidagi bogʻliqlik haqidagi qarashlari internet hamjamiyatlarida (kanal auditoriyasi, forum subhamjamiyati, hashtag atrofida guruhlar) janrlar qanday paydo boʻlishi va barqarorlashishini tushuntirishga xizmat qiladi.

Rus tilshunosligida raqamli muloqotni konseptuallashtirish, asosan, “компьютерно-опосредованная коммуникация” va “электронный/интернет-дискурс” terminlari atrofida shakllangan. L. Shchipitsina CMC va “elektron diskurs” terminlarining chegaralarini aniqlashtirishga urinib, ularni sinonim sifatida qoʻllash ilmiy aniqlikni pasaytirishini koʻrsatadi; bunda kommunikatsiya – faoliyat va jarayon, diskurs esa – matnlar majmui hamda ularning ijtimoiy-pragmatik sharoitlari bilan bogʻliq hodisa sifatida ajratiladi. E. Goroshko esa terminshunoslik muammosiga eʼtibor qaratib, “kompyuter vositasidagi muloqot”ning kengayib borayotgan texnologik shakllari (platforma va qurilma xilma-xilligi) sababli tushunchaviy

apparatni qat'iy mezonlar asosida yangilab borish zarurligini asoslaydi. Shuningdek, rus (va umumiy slavyan) ilmiy makonida CMC/diskurs masalalariga bag'ishlangan to'plamlar (masalan, "Компьютерно-опосредованная коммуникация и дискурс" yo'nalishidagi maqolalar) muammoga turli metodlar – pragmatika, sotsiolingvistika, janrshunoslik – orqali yondashilganini ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida onlayn diskurs va internet matnini o'rganishning asosiy yo'nalishlari sifatida (i) internet diskursining ekspressivligi va pragmatikasi, (ii) internet matnlarining sintaktik xususiyatlari, (iii) internetdagi leksik yangilanish va neologizatsiya, (iv) korpus yondashuvi asosida raqamli matnlarni tizimlashtirish kabi yo'nalishlar ko'zga tashlanadi. Xususan, M. Madaminovanning monografik tadqiqotida zamonaviy o'zbek internet diskursi sintaksisida og'zaki-yozma sinkretiklik, adabiy me'yordan chekinish va ellipsis/parsellyatsiya kabi hodisalarning ekspressiv imkoniyatlari pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Internet diskurs ekspressivligini nazariy asoslashga doir ishlarda ham internet matnining baholovchi-emotsional komponentlari va ularni yuzaga chiqaruvchi vositalar alohida ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, o'zbek tili internet makonida qo'llanishini korpus va konseptual metafora doirasida o'rganishga urinishlar ham mavjud bo'lib, bu yo'nalish raqamli matnlarni empirik asosda qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar umumlashtirilganda, bir tomondan, xalqaro CMC/CMD maktabi (Herring, Crystal) raqamli kommunikatsiyani "texnologiya + til + ijtimoiy kontekst" triadasida izohlab, metodik apparatni (CMDA) aniq belgilab beradi. Ikkinchi tomondan, janr nazariyasi (Miller, Swales) internet janrlarini qat'iy formal belgilardan ko'ra ijtimoiy vazifa va hamjamiyat me'yorlari orqali tushuntirishni taklif qiladi. Uchinchi tomondan, rus va o'zbek tadqiqotlarida terminologik chegaralarni aniqlash, internet diskursining pragmatik-ekspressiv va sintaktik ko'rinishlarini tavsiflash ustuvor bo'lib, aynan "raqamli kommunikatsiya – onlayn diskurs – internet janrlari" o'rtasidagi ierarxik munosabatni yagona konseptual model sifatida izchil belgilash ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotda asosiy metod sifatida kompyuter vositasidagi diskurs tahlili (Computer-Mediated Discourse Analysis – CMDA) yondashuvi qo'llanildi. Ushbu metod raqamli muhitda yuzaga keladigan matn va muloqot birliklarini lingvistik, pragmatik hamda strukturaviy jihatdan kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot materiali sifatida ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalardagi (post, komment, chat, blog kabi) real kommunikativ namunalardan iborat korpus shakllantirildi. Tanlangan matnlar sinxron va asinxron muloqot shakllarini qamrab oladi. Tahlil jarayonida birliklar grafika-imlo xususiyatlari, leksik tanlov, sintaktik qurilish va pragmatik funksiyalar asosida izchil o'rganildi.

CMDA metodi orqali raqamli kommunikatsiya – keng kommunikativ makon, onlayn diskurs – ushbu makondagi nutqiy jarayonlar majmui, internet janrlari esa – diskursning strukturaviy-funksional shakllari sifatida izohlandi. Shu tariqa, tanlangan metod tadqiqot mavzusining nazariy chegaralarini aniq belgilash va tushunchalar o'rtasidagi ierarxik munosabatni asoslash imkonini berdi.

Tadqiqot doirasida ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalardan olingan matnlar korpusi kompyuter vositasidagi diskurs tahlili (CMDA) asosida o'rganildi. Tahlil jarayonida raqamli kommunikatsiya, onlayn diskurs va internet janrlari tushunchalarining amaliy namoyon bo'lish shakllari aniqlanib, ularning o'zaro munosabati empirik materiallar asosida tekshirildi.

Avvalo, raqamli kommunikatsiyaning asosiy belgisi sifatida multimodallik va interaktivlik ustuvor ekanligi kuzatildi. Post va kommentlarda matn bilan bir qatorda emoji, hashtag, mention, link va vizual elementlar bir butun semantik birlikni tashkil etishi aniqlandi. Bu holat an'anaviy yozma nutqdan farqli ravishda ma'no yaratish jarayonida paralingvistik

vositalarning faol ishtirok etishini ko'rsatadi. Masalan, emoji baholovchi yoki yumshatuvchi funksiya bajarib, gapning illokutiv kuchini o'zgartirishi mumkinligi tahlil davomida tasdiqlandi.

Onlayn diskurs darajasida esa muloqotning kontekstga kuchli bog'liqligi va auditoriyaga yo'naltirilganligi asosiy xususiyat sifatida namoyon bo'ldi. Kommentlar ketma-ketligi ko'pincha dialogik tuzilishga ega bo'lib, unda javob reaksiyasi (reply), qo'llab-quvvatlash (like), qayta ulashish (repost) kabi platformaviy funksiyalar pragmatik ma'no kasb etadi. Bu elementlar diskursning tarkibiy qismi sifatida kommunikativ strategiyani shakllantiradi.

Internet janrlarini tahlil qilish natijasida ularning chegaralari qat'iy emasligi, aksincha, dinamik va kontekstga bog'liq ekanligi aniqlandi. Masalan, blog posti va axborot postlari strukturaviy jihatdan o'xshash bo'lsa-da, kommunikativ maqsadi va auditoriya bilan munosabatiga ko'ra farqlanadi. Chat janri esa sinxronlik, qisqalik va og'zaki nutqqa yaqin sintaktik qurilish bilan ajralib turadi. Komment janrida esa baholovchi leksika va dialogik struktura ustuvorlik qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, "raqamli kommunikatsiya" tushunchasi keng kommunikativ makonni ifodalaydi; "onlayn diskurs" ushbu makonda yuzaga keladigan nutqiy jarayonlar va matnlar majmui sifatida namoyon bo'ladi; "internet janrlari" esa diskursning konkret strukturaviy-funksional shakllaridir. Demak, mazkur tushunchalar o'zaro ierarxik munosabatda bo'lib, bir-birini to'ldiradi, biroq sinonimik emas.

Shuningdek, janr chegaralarining platforma texnologiyasi bilan chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Platformaning texnik imkoniyatlari (belgi limiti, vizual qo'shimchalar, algoritmik ko'rinish) til birliklarining tanlanishi va tuzilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa raqamli diskursni tahlil qilishda texnologik omilni ham lingvistik parametr sifatida hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli kommunikatsiya fenomenining ko'p qatlamli tuzilishga ega ekanini, onlayn diskursning ijtimoiy-pragmatik xususiyatlari bilan belgilanayotganini hamda internet janrlarining nisbiy va dinamik xarakterga ega ekanini ilmiy asosda ko'rsatdi.

Mazkur tadqiqotda raqamli kommunikatsiya, onlayn diskurs va internet janrlari tushunchalarining nazariy mazmuni hamda ularning o'zaro chegaralari lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli kommunikatsiya an'anaviy og'zaki va yozma nutq shakllaridan farqli ravishda multimodal, interaktiv va platformaga bog'liq kommunikativ makon sifatida namoyon bo'ladi. Unda matn, grafika, emoji, vizual va texnik belgilar birgalikda ma'no yaratish jarayonida faol ishtirok etadi.

Tahlil asosida "raqamli kommunikatsiya" keng qamrovli kommunikativ tizim sifatida talqin qilindi; "onlayn diskurs" mazkur tizim doirasida yuzaga keladigan nutqiy jarayonlar va matnlar majmui sifatida izohlandi; "internet janrlari" esa diskursning konkret strukturaviy-funksional shakllari ekani asoslandi. Demak, mazkur tushunchalar o'zaro ierarxik munosabatda bo'lib, biri ikkinchisining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi, biroq ular terminologik jihatdan aynanlashtirilishi mumkin emas.

Shuningdek, internet janrlarining chegaralari qat'iy emasligi, aksincha, dinamik va kontekstga bog'liq ekani aniqlandi. Platformaning texnologik imkoniyatlari janr tuzilishi, matn hajmi, sintaktik qurilish va pragmatik strategiyalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa raqamli diskursni o'rganishda lingvistik tahlilni texnologik omillar bilan integratsiyada olib borish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari zamonaviy tilshunoslikda raqamli nutq fenomenini tizimli o'rganish, internet janrlarini tipologik jihatdan tasniflash hamda terminologik aniqlikni

ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur xulosalar raqamli savodxonlik, netiket me'yorlarini ishlab chiqish va ta'lim jarayonida onlayn diskursni o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Crystal D. Language and the Internet. – 2nd ed. – Cambridge : Cambridge University Press, 2006. – 272 p.
2. Herring S. C. Computer-Mediated Discourse Analysis: An Approach to Researching Online Behavior // Barab S., Kling R., Gray J. (eds.). Designing for Virtual Communities in the Service of Learning. – New York : Cambridge University Press, 2004. – P. 338–376.
3. Miller C. R. Genre as Social Action // Quarterly Journal of Speech. – 1984. – Vol. 70, № 2. – P. 151–167.
4. Swales J. M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge : Cambridge University Press, 1990. – 260 p.
5. Goroshko E. I. Kompyuterno-oposredovannaya kommunikatsiya: problemy terminovedeniya // Vestnik TGPU. – 2009. – № 9. – S. 45–50.
6. Herring S. C. Computer-Mediated Communication: Linguistic, Social and Cross-Cultural Perspectives // Journal of Computer-Mediated Communication. – 1996. – Vol. 1, № 4. – P. 1–23.
7. Madaminova M. A. O'zbek internet diskursining lingvopragmatik xususiyatlari. – Toshkent : Fan, 2021. – 180 b.
8. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград : Перемена, 2002. – 477 с.
9. Fairclough N. Language and Power. – 2nd ed. – London : Longman, 2001. – 259 p.